

**ELEKTRON SHARTNOMALAR YUZASIDAN NIZOLARNI ONLAYN HAL QILISH: RAQAMLI IQTISODIYOT KONTEKSTIDA ODR TIZIMINING HUQUQIY VA AMALIY TAHLILI**

**Raxmonkulova Nilufar Hoji-Akbarovna**

*Ilmiy rahbar: “Fuqarolik huquqi va xalqaro xususiy huquq fanlari”  
kafedrası professori, y.f.d., prof.*

**Daminov Ismoiljon Baxodirjon o‘g‘li**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro biznes huquqi fakulteti  
Magistratura bosqichi talabasi Toshkent, O‘zbekiston  
E-mail: [idaminov009@gmail.com](mailto:idaminov009@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron shartnomalardan kelib chiqadigan nizolarni hal etishning zamonaviy mexanizmi sifatida ODR (Online Dispute Resolution) tizimining huquqiy va amaliy jihatlari yoritilgan. O‘zbekiston amaldagi sud tizimida elektron shartnoma nizolarini hal qilish jarayonidagi mavjud muammolar – jarayonning sekinligi, elektron dalillarni baholashdagi noaniqliklar, raqamli sud infratuzilmasining yetarli emasligi hamda smart-shartnomalarga oid normativ bo‘shliqlar tahlil qilinadi. Maqolada Yevropa Ittifoqi, Singapur va Xitoyning ODR bo‘yicha ilg‘or tajribalari qiyosiy-huquqiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqilib, ularning afzalliklari va O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida mamlakatning mavjud elektron hukumat tizimlari bilan integratsiya qilinadigan, bosqichma-bosqich joriy etiladigan optimal ODR modelini taklif etish ko‘zlanadi. Mazkur model elektron shartnomalar bozorining huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, transchegaraviy savdoda ishonchni oshirish va sud organlarining yuklamasini kamaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** ODR, elektron shartnoma, raqamli iqtisodiyot, elektron dalillar, raqamli identifikatsiya, transchegaraviy nizolar, elektron tijorat, mediatsiya, arbitraj.

**ОНЛАЙН-РАЗРЕШЕНИЕ СПОРОВ ПО ЭЛЕКТРОННЫМ ДОГОВОРАМ:  
ПРАВОВОЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СИСТЕМЫ ODR В КОНТЕКСТЕ  
ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ**

**Рахмонкулова Нилуфар Хожии-Акбаровна**

*Научный руководитель: профессор кафедры “Гражданского права и международных  
частно-правовых дисциплин”, доктор юридических наук, профессор.*

**Даминов Исмоилжон Баходиржон ўғли**

*Университет мировой экономики и дипломатии*

*Факультет международного бизнес-права Магистрант*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [idadaminov009@gmail.com](mailto:idadaminov009@gmail.com)*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются правовые и практические аспекты внедрения системы ODR (Online Dispute Resolution) как современного механизма разрешения споров, возникающих из электронных договоров в условиях цифровой экономики. Анализируются основные проблемы действующей судебной системы Узбекистана при рассмотрении подобных споров: длительность процедур, отсутствие устоявшихся критериев оценки электронных доказательств, недостаточность цифровой судебной инфраструктуры и нормативные пробелы, связанные со смарт-контрактами. В статье проводится сравнительно-правовой анализ передового опыта Европейского союза, Сингапура и Китая, подчёркиваются их преимущества и возможности адаптации к узбекским условиям. В результате исследования предлагается оптимальная модель ODR, интегрируемая с существующими системами электронного правительства. Внедрение данной модели позволит повысить правовые гарантии в сфере электронной торговли, укрепить доверие в трансграничных операциях и снизить нагрузку на суды.

**Ключевые слова:** ODR, электронный договор, цифровая экономика, электронные доказательства, цифровая идентификация, трансграничные споры, электронная коммерция, медиация, арбитраж.

## ONLINE DISPUTE RESOLUTION OF ELECTRONIC CONTRACTS: LEGAL AND PRACTICAL ANALYSIS OF THE ODR SYSTEM IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY

**Rakhmonkulova Nilufar Khoji-Akbarovna**

*Scientific Supervisor: Professor of the Department of “Civil Law and Private International Law Disciplines”, Doctor of Legal Sciences, Professor.*

**Daminov Ismoiljon Bakhodirjon ogli**

*University of World Economy and Diplomacy*

*Faculty of International Business Law Master’s Degree Student*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [idadaminov009@gmail.com](mailto:idadaminov009@gmail.com)*

**Abstract:** *This article examines the legal and practical aspects of implementing Online Dispute Resolution (ODR) as a modern mechanism for resolving disputes arising from electronic contracts in the context of the digital economy. It identifies key challenges within Uzbekistan’s current judicial framework, including lengthy dispute-resolution procedures, insufficient standards for evaluating electronic evidence, limited digital court infrastructure, and regulatory gaps concerning smart contracts. The study provides a comparative legal analysis of advanced ODR practices in the European Union, Singapore, and China, highlighting their strengths and potential applicability to Uzbekistan. Based on the findings, the article proposes an optimal ODR model tailored to national conditions and capable of integrating with existing e-government systems. The proposed model is expected to enhance legal certainty in electronic commerce, strengthen consumer and business protection, improve the efficiency of cross-border transactions, and reduce the workload on courts.*

**Keywords:** *ODR, electronic contract, digital economy, electronic evidence, digital identification, cross-border disputes, e-commerce, mediation, arbitration.*

Raqamli dunyoning shiddat bilan rivojlanishi, insonlar o‘rtasidagi ko‘plab ijtimoiy munosabatlarning raqamli shaklga o‘tishiga olib kelmoqda. Jumladan, so‘nggi o‘n yilliklarda global iqtisodiyotning raqamlashtirilishi davlatlar va biznes subyektlari o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlarga ham sezirali darajada ta‘sir o‘tkazmoqda va ushbu munosabatlarning shaklini tubdan o‘zgartirib yubormoqda. An‘anaviy qog‘oz shaklidagi shartnomalar o‘rnini tobora ko‘proq elektron shartnomalar, onlayn platformalar orqali tuziladigan kelishuvlar, raqamli imzo va avtomatlashtirilgan tartiblar egallamoqda.

Elektron tijorat bozori hajmi ham muttasil o‘sib bormoqda, xususan: yuridik shaxslar o‘rtasidagi, iste‘molchilar bilan tuziladigan shartnomalar, xizmatlar va tovarlar aylanmasi, logistika, IT-xizmatlar, raqamli moliyaviy operatsiyalar kabi yo‘nalishlarda elektron shakl odatiy norma sifatida qabul qilinmoqda<sup>143</sup>.

Raqamli iqtisodiyotning kengayishi nafaqat xususiy sektor, balki davlatlararo hamkorlik faoliyatida ham yangi huquqiy muhitni shakllantirmoqda. Transchegaraviy savdo, xalqaro raqamli xizmatlar ko‘lami ortgani sari davlatlar ham o‘zaro munosabatlarida elektron shartnomalar institutidan keng foydalanishga o‘tmoqda. Shu sababli elektron shartnomalar bugungi kunda nafaqat texnik vosita, balki iqtisodiy xavfsizlik, biznesning barqarorligi va xalqaro hamkorlikning asosiy huquqiy infratuzilmasi sifatida qaralmoqda.

<sup>143</sup> United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD), Measuring the Value of E-commerce. – Technical Note No. 1. – Geneva, April 2024. – URL: [UNCTAD Report](#)

Biroq shartnomalarning raqamli shakli afzalliklarga ega bo‘lganidek, ular muayyan xususiyatlarga ham ega: bitimlar masofaviy tarzda tuziladi, taraflar bir vaqtning o‘zida turli yurisdiksiyalarda bo‘lishi mumkin, shartnomaviy hujjatlar elektron ma‘lumotlar ko‘rinishida saqlanadi, aloqa vositalari bitimning mazmuniy tarkibiga bevosita ta‘sir qiladi. Bularning barchasi shartnoma bajarilishi davomida yoki undan so‘ng nizoli holatlar yuzaga kelish ehtimolini oshiradi.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiliga ko‘ra bu kabi shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etishning alohida mustaqil mexanizmi yo‘q. Bunday nizolar kelib chiqqan taqdirda umumiy tartibdagi sudlar yoki an‘anaviy nizoni hal etishning institutlari orqali ko‘rib chiqiladi. Bundan kelib chiqadiki, ijtimoiy munosabatlar yangilangan shakilda elektron tartibda amalga oshirilganiga qaramasdan, kelib chiqadigan nizolar hamon eski tartibda hal etiladi va bu bir qator kamchiliklarni namoyish etmoqda.

Birinchiidan, shartnomaviy munosabatlarning eng asosiy jihatlaridan biri bu tezlik bo‘lib, shartnomalar tezkor tuziladi, biroq an‘anaviy sud tizimida nizoni ko‘rib chiqish uzoq davom etadi. Ariza topshirish, ekspertiza tayinlash, javoblarni olish va sud majlislarini belgilash jarayonlari ko‘p vaqt talab etiladi. Bu vaqt davomida esa bazan hatto yo‘qotilgan zararni o‘rni faoliyat davomida qoplanib ketishi yoki aksincha yirik zarar natijasida tadbirkorlik subyekti faoliyati barbod bo‘lib butunlay faoliyatining tugatilishiga ham olib kelishi mumkin.

Ikkinchiidan, sud amaliyotida elektron imzo, elektron hosidalar jurnali, e‘mail yozishmalar, smart-shartnoma kodlari kabi dalillarni baholash bo‘yicha izchil qoida va ustuvor tamoyillar yetarli ishlab chiqilmagan. Ko‘pplab sudyalarda texnik bilimlar yetishmaydi, buning natijasida esa elektron dalillarni ishonchiligini baholashda subyektivlik kuzatilishi mumkin.

Uchinchiidan, sud tizimida onlayn jarayonlar yetarli darajada tartibga solinmagan, sudlarga da‘vo arizasini elektron platforma orqali topshirish imkoni mavjud bo‘lsada<sup>144</sup>, jarayonning o‘zi to‘liq raqamlashtirilmagan. Amaliyotda kuzatilishicha, ariza elektron tartibda kiritilganiga qaramay, ish davomida yuritiladigan hujjatlarning, qarorlar va xabarnomalarning bari ikki shakilda ham elektron ham qog‘oz shaklida yuritilishi majburiyati yuklatilgan. Bu esa avval faqatgina an‘anaviy tartibda ishni ko‘rib chiqqan tizim uchun harajatlar va ish hajmini ikki marotaba ko‘payishiga olib kelmoqda.

To‘rtinchiidan, smart-shartnomalar bo‘yicha maxsus tartib mavjud emas. Kodlar asosida avtomatik bajariladigan shartnomalar sud tomonidan qanday baholanishi, ularning yuridik kuchi, nizoni hal qilishi kabi masalalar bo‘yicha huquqiy bo‘shliq mavjud.

<sup>144</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 11 sentabr 2017 yil, O‘RQ–445-son (2024 yil 21 sentabrdagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan). – Toshkent, 2017. – URL: [LexUZ](https://lexuz.net/)

An’anaviy sud tizimidagi bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Ethan Katsh va Janet Rifkinlar keng miqyosdagi onlayn nizolarni hal qilish nazariyasini ishlab chiqishgan va bugungi kunda huquqiy institut sifatida shakillanayotgan ODR – Online Dispute Resolution asoschilariga aylanishgan. Ularning ta’rifiga ko’ra “ODR – bu internet texnologiyalari yordamida yuzaga kelgan nizolarni hal etish jarayoni bo’lib, u an’anaviy ADR usullarining (mediatsiya, arbitraj) raqamli davrdagi evolyutsiyasidir<sup>145</sup>.” Ularning nazarida ODR elektron shartnomalar kontekstida zaruriy bo’lgan uch asosiy tamoyilga tayanadi. Bular tezlik, masofaviylik va past xarajatlar hisoblanadi.

Jeffrey M. Aresty esa shunday ta’rif beradi: “ODR – bu global iqtisodiy munosabatlar uchun yuridik infratuzilma bo’lib, u an’anaviy yurisdiksiya doirasidan chiqib ketadigan transchegaraviy nizolarni samarali hal qiladi<sup>146</sup>.”

Xalqaro darajada keltirib o’tilgan normative ta’riflardan bir UNCITRAL tomonidan berilgan bo’lib, unga ko’ra: “Elektron savdo bilan bog’liq past qiymatli, transchegaraviy shartnomalardan kelib chiqadigan nizolarni onlayn vositalar yordamida hal etish mexanizmi<sup>147</sup>.”

Yuqoridagi fikrlar asosida aytishimiz mumkinki ODR bu internet va raqamli texnologiyalar yordamida yuzaga kelgan nizolarni hal qilishning zamonaviy mexanizmi bo’lib, u an’anaviy usullar asosida shakillangan, transchegaraviy va iqtisodiy jihatdan samarali hal etishga mo’ljallangan yuridik infratuzilma hisoblanadi. Uning asosiy hususiyatlari sifatida tezkorlik, masofaviylik, past xarajatlar, transchegaraviylik va elektron shartnomalar bilan moslashuvchanlik kabi rivojlanib borayotgan raqamli iqtisodiy olami uchun zaruriy omillarni ko’rsatib o’tishimiz mumkin.

Ushbu tizim qanchalik muvaffaqiyatli bo’lishi mumkin, amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo’ladimi? Ushbu savolga javobni ODR tizimini allaqachon amaliyotga tatbiq etgan davlatlar amaliyotida ko’rib chiqamiz.

Albatta, barcha hukumatlar ODRni qo’llab-quvvatlaydi, chunki u sudlar ta’minlay olmaydigan odil sudlovga kirish shaklini taklif qila oladilar. Biroq, hukumatlar, shuningdek, byudjet cheklovlaridan kelib chiqqan holda sud tizimi va yuridik yordam xarajatlarini

<sup>145</sup> Katsh E, Rifkin J, Online Dispute Resolution: Resolving Conflicts in Cyberspace. – San Francisco: Jossey-Bass, 2001. – ISBN: 978-0787956769.

<sup>146</sup> Devanesan R, Aresty J, “ODR and Justice – An Evaluation of Online Dispute Resolution’s Interplay with Traditional Theories of Justice” // Abdel Wahab MS, Katsh E, Rainey D (eds.), Online Dispute Resolution: Theory and Practice – A Treatise on Technology and Dispute Resolution. – The Hague: Eleven International Publishing, 2012. – P. 251–293. – URL: Mediate.com PDF

<sup>147</sup> United Nations Commission on International Trade Law, Technical Notes on Online Dispute Resolution. – New York: UNCITRAL, 2016. – 24-band. – URL: UNCITRAL Technical Notes on ODR

kamaytirish zarurati haqida ham fikr yuritadilar<sup>148</sup>. Bundan tashqari, hukumatlar elektron tijorat industriyasini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga intilmoqdalar<sup>149</sup>, uning o‘sishi yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlarini hamda soliq tushumlarining muhim manbasini yaratishi imkonini beradi

Avvalo **Yevropa ittifoqiga** nazar tashlasak, yevropa iqtisodiy hududida ayniqsa elektron tijorat shartnomalari juda rivojlangan va albatta bu transchegaraviy nizolarning ko‘payishiga olib kelgan. Ushbu masalada Yevropa ittifoqida 2013 yilda 524/2013 Yevropa ittifoqi regulatsiyasi qabul qilingan, uning asosida esa ODR tizimi elektron savdo bilan bog‘liq transchegaraviy nizolarni hal qilishga qaratilgan yagona markaziy platforma sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Bu platforma barcha a‘zo davlatlar iste‘molchilari va sotuvchilari uchun bepul, masofaviy va avtomatlashtirilgan xizmatlarni taqdim etadi. Tizimning asosiy maqsadi – transchegaraviy elektron savdo nizolarini tezkor, shaffof va iqtisodiy jihatdan samarali hal qilishdir. Platforma foydalanuvchilarga da‘voni onlayn yuborish, dalillarni elektron shaklda taqdim etish va nizolarni mediatsiya yoki arbitraj orqali hal qilish imkoniyatini beradi.

Tahliliy jihatidan Yevropa ittifoqining ushbu ODR tizimi bir nechta ustunliklarga ega. Birinchidan, tizim tezkorlikni ta‘minlaydi: nizolarni sudga murojaat qilmasdan hal qilish mumkin, bu esa vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Ikkinchidan, masofaviylik xususiyati mavjud: foydalanuvchilar o‘z mamlakatidan chiqmasdan, boshqa davlatdagi sotuvchi bilan nizoni onlayn hal qila oladi. Uchinchidan, tizim standartlashtirilgan va shaffof jarayonlarni taqdim etadi, bu esa iste‘molchi va sotuvchi o‘rtasida ishonchni oshiradi va nizolarni adolatli hal qilish imkonini beradi<sup>150</sup>.

**Singapurda** ham ODR tizimi joriy etilgan bo‘lib, xalqaro va transchegaraviy tijorat nizolarini hal qilishga qaratilgan, uning markaziy platformasi sifatida Singapore International Mediation Centre ODR faoliyat yuritadi. Bu platforma arbitraj va mediatsiya jarayonlarini onlayn integratsiyalash orqali nizolarni tez, shaffof va samarali hal qilish imkonini beradi. Singapurning ushu markaziy ODR tizimi foydalanuvchilarga da‘voni elektron shaklda yuborish, dalillarni onlayn taqdim etish, videokonferensiya orqali muzokaralar o‘tkazish va arbitraj yoki mediatsiya natijalarini rasmiylashtirish imkoniyatini beradi<sup>151</sup>.

<sup>148</sup> Klaus Peter Berger, International Economic Arbitration (Kluwer Law & Taxation 1993) <https://www.lehmans.de/shop/recht-steuern/57608719-9789041174253-international-economic-arbitration>

<sup>149</sup> Lüdvig Vittgenshteyn, Psixologiya falsafa haqida SO‘ngi yozilganlar: Ichki va Tashqi, Jil. 2, 72 (G.H. von Rayt va H. Nyman nashrlari, 1992).

<sup>150</sup> Regulation (EU) No 524/2013 of the European Parliament and of the Council of 21 May 2013 on online dispute resolution for consumer disputes and amending Regulation (EC) No 2006/2004 and Directive 2009/22/EC (Regulation on consumer ODR) <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32013R0524>

<sup>151</sup> Singapore International Mediation Centre, About SIMC (SIMC) <https://simc.com.sg/about-simc>

Singapur amaliyotida ODR tizimi shuningdek normativ va yuridik himoya bilan mustahkamlangan. SIMC platformasi tomonidan hal qilingan nizolar xalqaro arbitraj institutlari tomonidan tan olinadi va ijro etilishi mumkin. Amaliyotda tizim ayniqsa kichik va o‘rta biznes, elektron savdo, xizmatlar va moliyaviy tranzaksiyalar bilan bog‘liq nizolar uchun samarali yechim sifatida ishlatiladi.

**Xitoy.** Tijorat va ishlab chiqarish sohalarida dunyo yetakchilaridan bo‘lgan Xitoy esa ushbu masalaga boshqa tarafdin qaradi va alohida ODR tizimi emas balki, butun boshli elektron sud tizimini yaratdi. Ushbu tizimi har ikki transchegaraviy va ichki elektron savdo nizolarini hal qilishda keng qo‘llanilib kelmoqda. Ushbu sudlar barcha jarayonni raqamli shaklda yuritadi: da‘volar onlayn topshiriladi, dalillar elektron shaklda taqdim etiladi va sud yig‘ilishlari videokonferensiya orqali o‘tkaziladi. Masalan, Hangzhou onlayn sud tizimi blockchain texnologiyasidan foydalanib dalillarni himoyalaydi va arxivlaydi<sup>152</sup>.

Bundan tashqari, bilamizki bugungi kunda elektron shartnomaalarning katta qismi turli dasturlar orqali amalga oshirilmoqda. Xitoyning E-savdo qonuni 63-moddasida ko‘ra: “Elektron savdo platformasi operatorlari ixtiyoriy ravishda onlayn nizolarni hal qilish mexanizmini tashkil qilishi, nizolarni hal qilish qoidalarini tuzishi va e‘lon qilishi mumkin<sup>153</sup>.” Masalan, Taobao platformasida foydalanuvchilar “jamoat sudyasi” mexanizmi orqali nizolarni hal qilishda ishtirok etadi.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston sharoitida ODR tizimini shakllantirish uchun eng maqbul yechim sifatida Singapur tajribasiga asoslangan, bosqichma-bosqich va nizoning murakkabligiga mos ravishda farqlangan modelni joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Chunki u, birinchidan, Xitoydagi kabi to‘liq onlayn sud infratuzilmasini yaratishni talab qilmaydi, ikkinchidan esa Yevropa Ittifoqidagi kabi faqat iste‘molchi nizolariga yo‘naltirilgan tor doiradagi yechim bilan cheklanib qolmaydi, balki O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan E-Ariza, “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” va E-imzo kabi tizimlarni integratsiya qilib, da‘vo kiritishdan tortib muzokara, mediatsiya, ekspertiza, arbitraj hamda sud jarayonining ayrim bosqichlarigacha bo‘lgan jarayomlarni yagona elektron platformada avtomatik tarzda boshqarishni, nizo qiymati, turi va ishtirokchilarining maqomidan kelib chiqib nizoni eng qulay va tez mexanizmga yo‘naltirishni ta‘minlaydi. Bunday model raqamli identifikatsiya, elektron dalillar, videokonferensiya va elektron hujjatlar aylanishi kabi mavjud infratuzilmani to‘ldiradi, shu bilan birga elektron savdo, telekommunikatsiya,

<sup>152</sup> Hangzhou Internet Court's judicial blockchain goes online.

[https://www.chinadaily.com.cn/m/chinalic/2018-10/16/content\\_37080413.htm](https://www.chinadaily.com.cn/m/chinalic/2018-10/16/content_37080413.htm)

<sup>153</sup> Zhonghua Renmin Gongheguo Dianzi Shangwu Fa [E-Commerce Law of the People's Republic of China] (adopted 31 August 2018, in force 1 January 2019) art 63. <https://faolex.fao.org/docs/pdf/chn215050.pdf>

logistika va davlat-xususiy sektor o‘rtasidagi nizolarni tezkor, arzon va sud tizimiga ortiqcha ish hajmiga sabab bo‘lmagan holda hal qilishga imkon beradi, ya’ni O‘zbekiston uchun ortiqcha xarajat talab qilmaydigan, mavjud tizimlarga moslashgan va huquqiy jihatdan implementatsiya qilish mumkin bo‘lgan eng optimal ODR modeli bo‘la oladi deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda elektron savdo va raqamli shartnomalar hajmi ortgani sayin nizolarni tez, arzon va masofadan turib hal qilish zarurati kuchaymoqda; amaldagi sud tizimi esa bunday nizolar uchun yetarlicha moslashuvchan emas. Xitoy, Yevropa Ittifoqi va Singapur tajribalari shuni ko‘rsatadiki, ODR tizimi raqamli iqtisodiyotning barqaror ishlashi, iste’molchilar huquqlarini samarali himoya qilish va sudlarga tushadigan yukni kamaytirishning eng maqbul mexanizmidir. Shu bois O‘zbekiston uchun ODRni joriy etish elektron shartnomalar bozorining huquqiy kafolatlarini kuchaytiradi va biznes muhitining raqobatbardoshligini oshiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 11 sentabr 2017 yil, O‘RQ–445-son (2024 yil 21 sentabrdagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan). – Toshkent, 2017. – URL: [LexUZ](#)

2. Regulation (EU) No 524/2013 of the European Parliament and of the Council of 21 May 2013 on Online Dispute Resolution for Consumer Disputes and amending Regulation (EC) No 2006/2004 and Directive 2009/22/EC. – Brussels, 2013. – URL: [EUR-Lex](#)

3. Zhonghua Renmin Gongheguo Dianzi Shangwu Fa [E-Commerce Law of the People’s Republic of China], adopted 31 August 2018, entered into force 1 January 2019. – Beijing, 2018. – 63-modda. – URL: [FAOLEX](#)

4. United Nations Commission on International Trade Law, Technical Notes on Online Dispute Resolution. – New York: UNCITRAL, 2016. – 24-band. – URL: [https://uncitral.un.org/en/texts/onlinedispute/explanatorytexts/technical\\_notes](https://uncitral.un.org/en/texts/onlinedispute/explanatorytexts/technical_notes)

### Ilmiy adabiyotlar va boshqa manbalar

5. Berger KP, International Economic Arbitration. – The Hague: Kluwer Law & Taxation, 1993. – URL: [Lehmans Media](#)

6. Bakhranova.M, “Raqamli makonda onlayn nizolar tushunchasi va ularning huquqiy maqomi” // Jamiyat va innovatsiyalar – Society and Innovations. – 2022. – Maxsus son 02. – B. 505–514. – ISSN 2181-1415. – URL: [DOI](#)

7. Devanesan R, Aresty J, “ODR and Justice – An Evaluation of Online Dispute Resolution’s Interplay with Traditional Theories of Justice” // Abdel Wahab MS, Katsh E, Rainey D (eds.), Online Dispute Resolution: Theory and Practice – A Treatise on Technology and Dispute Resolution. – The Hague: Eleven International Publishing, 2012. – P. 251–293. – URL: [Mediate.com PDF](#)
8. Katsh E, Rifkin J, Online Dispute Resolution: Resolving Conflicts in Cyberspace. – San Francisco: Jossey-Bass, 2001. – ISBN: 978-0787956769.
9. Lüdvig Vittgenshteyn, Psixologiya falsafa haqida so‘nggi yozilganlar: Ichki va tashqi. – Jild 2. – G.H. von Rayt va H. Nyman tahriri ostida. – 1992. – B. 72.
10. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD), Measuring the Value of E-commerce. – Technical Note No. 1. – Geneva, April 2024. – URL: [UNCTAD Report](#)
11. “Analysis of Taobao ODR Mechanism” // FX361, 27 August 2021. – URL: <https://journals.sas.ac.uk/amicus/article/view/5755/5393>
12. “China’s Internet Courts Boost Efficiency and Transparency” // China Daily, 16 October 2018. – URL: [China Daily](#)
13. Singapore International Mediation Centre, “About SIMC”. – URL: [Singapore International Mediation Centre](#)